ISNN 3030-3907

2026/4
VOLUME 3

DEVELOPMENT OF SCIENCE

ILMIY JURNAL



Development of science

Ilmiy jurnal

2026/4 VOLUME 3

ISSN 3030 -3907

Ilmiy jurnal OAK rayosatining 2024 yil 27 sentabrdagi 361-son qaroriga asosan 02.00.00 kimyo fanlari hamda 2025 yil 12 fevral 367- son qaroriga asosan 05.00.00 texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR:
Temirov Alisher Hoshim o‘g‘li – texnika fanlari falsafa doktori (PhD),Dotsent.
TAHRIRIYAT KENGASH RAISI:
Fozilov Sadriddin Fayzullayevich – texnika fanlari doktori, professor
TAHRIRIYAT KENGASH A’ZOLARI

TEXNIKA FANLARI/ TECHNICAL SCIENCES/ ТЕХНИЧЕСКИЕ НАУКИ

Bozorov G‘ayrat Rashidovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Abdurahmonov Olim Rustamovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Adizov Bobur Zamirovich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti, professor
Hayitov Ruslan Rustamjonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Jumayev Qayum Karimovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Berdiyev Dorob Murodovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor
Maxmudov Rafiq Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Tilloyev Lochin Ismatilloyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Raxmonov Qahramon Sanakulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Barakayev Nusratullo Rajabovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor.
Jo‘rayev Xayrullo Fayziyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Panoyev Erali Rajabboyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Ataullayev Sherzod Nabiullyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Malik Negmurodovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Axmedova Ozoda Bahronovna
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti.
Safarov Bahri Jumayevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Xaydarov Axtam Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Safarov Jasur Alijon o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Асадова Раъно Дилмуратовна
Тошкент Давлат техника университети доценти

KIMYO FANLARI/ CHEMICAL SCIENCES/ ХИМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Axmedov Voxid Nizomovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Umarov Baqo Bafoyevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Kodirov Abduaxad Abduraximovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Qurbonov Mingniqul Jumagulovich
Qarshi davlat Universiteti, dotsent
Turemuratov Sharibay Naurizbaevich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Bosh ilmiy kotibi, professor
Tursunov Kaxor Shonazarovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Do‘stov Hamro
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Panoyev Nodir Shavkatovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Olimov Bobur Bahodir o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Kasimov Sherzod Abduazimovich
Termiz Davlat Universiteti, professor.
Aliqulov Rustam Valiyevich
Termiz Davlat Universiteti, professor
Tropov Xamza Tursunovich
Samarqand Davlat Universiteti, professor

IQTISODIYOT FANLARI/ ECONOMICS/ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Nizamov Aslitdin Badreddinovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Boboyev Akmal Choriyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Ergashxojayeva Shaxnoza Djasurovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Saidaxmedova Nodira Ilxomovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Muxsinov Bekzod Toxirovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shakarov Qulmat Ashirovich
Renessans ta'lim universiteti,dotsent.
Jumaeva Zulfiya Qayumovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Norova Salomat Yusupovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Avezova Shaxnoza Maxmudjonovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Jalilov Jamshid G‘anijonovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, dotsent
Xasanova Gulruh Djumanazarovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.

PEDAGOGIKA FANLARI/ PEDAGOGICAL SCIENCES / ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ

Siddiqova Sadoqat G‘afforovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Zoyirov Erkin Xalilovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, DSc, professor
Gaffarov Feruz Hasanovich
Puchon Universiteti, *professor*
Ruziyev Davron Yuldashevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Muradova Firuza Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Yunusova Gulandon Samiyevna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
To‘xtayeva Zebo Sharifovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Navro‘zova Gulchixra Nigmatovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Uzoqova Laylo Polvonovna
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.
To‘raqulova Marjona Qiyom qizi
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Muradova Zarina Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Sanjar Aslonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shodiyev Jahongir Jo‘raqulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent
Gaffarov Laziz Hasanovich
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.

Tahririyat a’zolarning to‘liq ro‘yxati jurnalning www.devos.uz saytida keltirilgan.

Tahririyat hay’ati a’zolarining tarkibini o‘zgartirish hamda qo‘shimcha kiritish yoki tahririyat a’zoligidan chiqarish bosh muharrir tomonidan amalga oshiriladi.

ISSN 3030-3907

Development of science ilmiy jurnali 2024 yil 15 aprel kuni №256445 sonli guvohnoma bilan Davlat ro‘yxatidan o‘tgan.

To‘plam elektron ko‘rinishda (pdf formatida) mualliflarga taqdim etiladi. To‘plamga kiritiladigan maqolalarning mazmuni, ulardagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligiga hamda har qanday fikr - mulohazalarga mualliflarning o‘zlari mas’ul hisoblanadilar. Talablarga javob bermaydigan maqolalar to‘plamga kiritilmaydi. Tashkiliy qo‘mita maqola matnini qisqartirish, qisman tuzatish kiritish, seksiyalarga joylashtirish huquqiga ega.

ISSN 3030-3907

O‘ZBEKISTON ANTROPOLOGLARI TOMONIDAN AMALGA OShIRILGAN GENETIK TADQIQOTLAR TARIXI

Sulaymanov Amaliddin Nurboevich
Guliston davlat universiteti, “tarix” kafedrasi dotsenti., tarix fanlari nomzodi

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekistonda antropologlari tomonidan amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqot ishlar, mintaqa xalqlarini o‘rganilishida genetik tadqiqotlar va uning ahamiyati haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston, Markaziy Osiyo, antropologiya, genetika, kraniologiya, etnografiya, ekspeditsiya, tadqiqotlar.

Аннотация. В статье рассматриваются научные и генетические исследования, проводивших антропологами Узбекистана и их значение в изучении истории народов региона.

Ключевые слова: Узбекистан, Центральная Азия, антропология, генетика, краниология, этнография, экспедиция, исследование.

Abstract. The article examines scientific and genetic research conducted by anthropologists of Uzbekistan and its importance in studying the history of the peoples of the region.

Key words: Uzbekistan, Central Asia, anthropology, genetics, craniology, ethnography, expedition, research.

KIRISH.

Jahon tsivilizatsiyasi tarixida, dunyoning ko‘plab mintaqalarida bo‘lganidek, zaminimizda ham qadimdan odamzod yashaganligi to‘g‘risida ko‘plab tarixiy ma’lumotlar mavjud. O‘zbekiston arxeologlari tomonidan turli vaqtlarda tarixiy hududlardan topilgan materiallar bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Farg‘onaning So‘h vodiysidagi Seleng‘ur va O‘zbekistonning janubidagi Boysuntog‘ tog‘ining Teshiktosh g‘oridan topilgan o‘rta paleolit davriga mansub odamlarning suyak qoldiqlari bunga misol bo‘la oladi [15:18-b]. Chunki Seleng‘ur mintaqadagi eng qadimgi insoniyat tomonidan qoldirilgan maskanlardan biri hisoblanadi. Arxeologik davrlashtirish ma’lumotlariga ko‘ra, bu yodgorlik ilk paleolit davriga oid bo‘lib, taqriban 1100000 – 1500000 yillar oralig‘iga taalluqlidir. Teshiktosh esa 100 – 40 ming yillarga oid hisoblanadi va o‘rta paleolit davrining so‘nggi bosqichiga to‘g‘ri keladi [13:165-b].

Qadimgi va hozirgi zamon aholisi deb talqin qilinayotgan turli irqlar qisman mintaqa hududida tarkib topgan bo‘lsa, qisman boshqa hududlardan ko‘chib kelishgan. Paleoantropologik ma’lumotlar shundan dalolat bermoqdaki, mintaqaning hozirgi zamon irqlari o‘zining qadimiy tarixiga ega. Mintaqa qabila va xalqlarining kelib chiqishi yo‘nalishini tadqiq etishda irqiy tarkibni o‘rganish

ISSN 3030-3907

yo‘li bilan olingan ma’lumotlar ilk manba bo‘lishi mumkin. Ushbu hududning hozirgi aholisi o‘ziga xos murakkab qorishmasi – qabilalar, xalqlar, til va irqlari bilan xarakterlanishi ma’lum. O‘zbekiston antropologlari insoniyatning asosiy irqlarini aniqlash maqsadida antropologiya fanida umume’tirof etilgan va eng mahsuldor hisoblangan geografik va antropologik taqqoslash metodikasidan foydalanishadi.

XX-asrning 20-yillari ikkinchi yarmida chop etilgan ilk maqolalarida antropologlar, turkmanlar [11:134-182-b], o‘zbeklar [6:171-b], qirg‘izlar [7:233-237-b], yahudiylar va arablarning [8:29-b] antropologik o‘ziga xosligiga alohida e’tibor qaratishadi. O‘zlarining antropologik kuzatuvlaridan, shuningdek mintaqa va unga tutash hududlarda ishlagan antropologlarning ma’lumotlaridan foydalangan holda, soha olimlari tayyorlagan ma’lumotlarini 1930-yilda Kiev shahrida bo‘lib o‘tgan zoologlar, anatomlar va gistologlarning IV-butunittifoq s’ezdida irqlar tasnifi jadvallarini [9:312-314-b] taqdim etishadi. Shu bilan bir paytda antropologlar o‘z tasniflarini muntazam rivojlantirib borishib, irqiy tiplarning joylashish hududlarini, ularning tuzilish vaqti va yo‘nalishini aniqlab berishadi [10:90-110-b].

Mintaqa va qo‘shni mamlakatlar hududida asosiy irqiy va morfologik belgilarning geografik taqsimlanishi tahlili va o‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida antropologlar quyidagi (to‘rtta evropeoid, bitta mo‘g‘uliy va aralash – evropeoid-mo‘g‘uliy) irqiy tiplarni ajratishadi.

- O‘rta Osiyo ikki daryo oralig‘i yoki Pomir-Farg‘ona irqi;
- Kaspiyorti yoki O‘rta dengiz irqining shaxobchasi;
- Old Osiyo irqi;
- Xuroson irqi;
- Janubiy Sibir irqi;
- Markaziy Osiyo irqi.

Mazkur maqolada O‘zbekiston antropologlari aniqlagan irqlarning asosiy morfologik va irqiy jihatlarini yoritib berishga harakat qilinadi.

Birinchidan, O‘rta Osiyo ikki daryo oralig‘i braxitsefal (dumaloq boshli) irqi. O‘zbekiston antropologlari o‘zbeklar va tojiklarni ushbu irq vakillari deb hisoblaydilar. Ularning Amudaryo va Sirdaryo xavzalaridagi tekisliklarda keng tarqalganligi hamda xar ikkala daryo o‘zanlarida va Pomir-Oloy hududlarida joylashganliklariga asoslanib, ular bu irqqa O‘rta Osiyo ikki daryo oralig‘i irqi nomini berishadi [10:111-b]. Ularning fikricha bu irqning katta evropeoid irqiga mansubligi tayin. Antropologlar ushbuni shu hududda neolit davrida shakllangan mahalliy irq deb hisoblashadi [10:114-b]. Shunday bo‘lsada, antropologik tadqiqotlar o‘tkazish metodikasining rivojlanishi sohaga oid materiallarni chuqur

ISSN 3030-3907

tahlil qilish imkonini yaratgan [16]. Mamlakatimizda XX-asrning 80-90-yillarida olib borilgan tadqiqotlarning natijalari shuni ko‘rsatadiki, mazkur hududda bu irqning qadimiyligi to‘g‘risidagi nuqtai nazarlar paleoantropologik tadqiqotlarda tasdiqlanmagan [17:100-102-b].

O‘rta Osiyo ikki daryo oralig‘i irqining paydo bo‘lish muammosi, nafaqat O‘zbekiston, balki Markaziy Osiyo antropologiyasining eng muhim masalalaridan biri bo‘lib kelmoqda. Yuqorida aytib o‘tilganidek, XX-asrning 80-90-yillarida yangi manbalarning to‘planishi natijasida, antropologlar tomonidan chuqurroq o‘rganishga imkon berdi. Ushbu irqning shakllanish davri, joyi va yo‘nalishlariga doir barcha ilmiy adabiyotlar ularning diqqat markazida bo‘ladi. Bu masalalarni hal qilishda antropologlar birinchi navbatda, yozma manbalarga, shuningdek qadimgi va o‘rta asrlar mintaqa aholisining tashqi ko‘rinishlari tasviri tushirilgan turli xil ikonografik manbalarga tayanib ish ko‘rishadi. Ma’lumki arxeolog va antropologlar qazib topgan turli tarixiy davrlarga oid odamlarning suyak qoldiqlari tashqi qiyofa to‘g‘risida eng muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Antropologlar o‘zlarining shakllanishi mobaynidagi dastlabki faoliyatlari, bu masala ustida ish olib borayotgan paytda, mintaqa hududidan topilgan qadimgi odamlarning suyak qoldiqlari juda kam bo‘lib, shu sababli katta xronologik va hududiy oq dog‘lar mavjud edi. Bundan tashqari bu muammolarni echish uchun antropologlar mintaqaga taalluqli bo‘lmagan, undan tashqarida qazib olingan paleantropologik materiallarga murojaat qilishlariga to‘g‘ri kelishgan. Albatta O‘zbekistonda sohaning rivojlanib borishi, tadqiqotlarning yangi metodlarini ishlab chiqilishi tadqiqotlarga o‘zining ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi. Vaziyat XX-asrning 40-yillari oxiriga kelib, antropologlar Turkmaniston, Xorazm, Farg‘ona, Toshkent, Samarqand va Buxoro viloyatlari hududidan topilgan yangi muhim materiallarni fanga kiritishganidan so‘ng o‘zgargan. Shunday bo‘lsada bu materiallar mintaqa antropologiyasining muammolarini echimini topishda hali ozchilikni tashkil qilar edi.

O‘rta Osiyo ikki daryo oralig‘i irqining shakllangan joyi to‘g‘risidagi masala antropologlar tomonidan ko‘plab manbalarni o‘rganib chiqish orqali hal qilinishiga erishila boshlanadi va ushbu irqning mahalliy ekanligi isbotlanadi. Shunga qaramay o‘sha vaqtlarda matbuotda ushbu masala bo‘yicha turli fikrlar bildirilgan. Rossiyalik antropolog-olim V.V.Ginzburg va arxeolog Yu.A.Zadneprovskiylar dastlab O‘rta Osiyo ikki daryo oralig‘i irqi Volgabo‘yida sarmatlar muhitida shakllangan, keyinchalik milodning I-minginchi yillarida ular sarmat qabilalari bilan birgalikda Ustyurt bo‘ylab Xorazmga, so‘ngra Sirdaryo bo‘ylab janubiy Qozog‘iston, Toshkent vohasi va Farg‘ona vodiysiga kirib borishgan, bir oz keyin

ISSN 3030-3907

bu qabilalar shu irqiy tipni O‘rta Osiyo ikki daryo oralig‘ining markaziy va janubiy viloyatlariga olib kirishgan degan fikrlarini bildirishgan [4:303-304-b].

Keyingi arxeologik tadqiqotlar haqiqatdan ham sarmat qabilalarining janubiy viloyatlarga siljib borishganligi to‘g‘risidagi dalilni tasdiqlagan. Ammo so‘nggi 30 yillik paleoantropologik ma’lumotlar bunday fikrlarni rad etadi [16:31-b]. Binobarin, o‘zaro madaniy va etnogenetik munosabatlarni bir xil deb xisoblash mumkin emasligini yana bir bor aytib o‘tish joiz. Volgabo‘yi – Uralbo‘yi qabilalarining madaniy ta’siri va bu madaniyat tarqalishining yo‘nalishi to‘g‘risida mulohaza yuritish mumkin. Biroq so‘nggi tadqiqotlar, bu ta’sirning etnogenetik va irqiy-genetik ahamiyati haqida so‘z yuritishga xech qanday asos yo‘qligini ko‘rsatadi.

Shunday ilmiy farazlardan biri, Rossiyalik olimlar V.P.Alekseev va I.I.Goxman [1;201-b]lar bildirgan qarshi nuqtai-nazarlari, asosan O‘rta Osiyo ikki daryo oralig‘i irqi sharqda shakllandi, so‘ngra g‘arbiy yo‘nalishda xarakatlanib, mintaqa hududida paydo bo‘lganligini ta’kidlashdan iborat bo‘lgan. Sharqiy viloyatlarda O‘rta Osiyo ikki daryo oralig‘i irqi vakillariga o‘xshash ayrim odamlarni uchratish mumkin bo‘lsada, biroq bu bilan yuqorida aytib o‘tilgan nuqtai-nazarni isbotlab bo‘lmagan.

O‘zbekiston antropologiyasining bugungi kundagi yutuqlari, antropologlarning O‘rta Osiyo ikki daryo oralig‘i irqi mahalliy ekanligini va u dastlab shimoliy viloyatlarda (Toshkent vohasi, Farg‘ona vodiysi), keyinchalik mintaqaning markaziy va janubiy viloyatlarida shakllanganligi haqidagi fikrlarni tasdiqlaydi. Shunday bo‘lsada, O‘rta Osiyo ikki daryo oralig‘i irqining shakllanish davri masalasi dolzarb mavzularni bo‘lib, xozirgacha etarlicha hal etilmagan desak mubolag‘a bo‘lmaydi [14:74-77-b]. Antropologlar daliliy materiallarning etarli emasligiga qaramay, O‘rta Osiyo ikki daryo oralig‘i irqi o‘zining qadimiy tarixiga ega va u neolit davrida, ya’ni bundan 6-8 ming yil avval shakllangan degan g‘oyani ilgari surishadi. Shuningdek uning shakllanishida Old Osiyoning turli evropeoid irqlari hamda kelib chiqishi sharqdan bo‘lgan turli mo‘g‘uliy irqlarning aralashuvi katta ahamiyat kasb etganligini tahmin qilishadi. XX-asrning so‘nggi choragi va XXI-asr boshlarida mintaqaning barcha davr va hududlarini qamrab olgan ulkan paleoantropologik, davriy va hududiy materiallar o‘rganib chiqilgan. Ushbu ma’lumotlar antropologlarning O‘rta Osiyo ikki daryo oralig‘i irqining kelib chiqishi jihatidan qadimiyligi to‘g‘risidagi fikrlariga mos kelmaydi. Soha olimlarining bugungi kun nuqtai nazaridan qaraganda, O‘rta Osiyo ikki daryo oralig‘i irqi komponentlari bilan ajralib turgan aholi mintaqaning shimoliy viloyatlarida miloddan avvalgi I-mingyillik o‘rtalari hamda ikkinchi choragidan buyon ma’lum ekanligini ta’kidlab o‘tmoq lozim [14:74-77-b].

ISSN 3030-3907

Bu irqning janubiy viloyatlarda tarqalishi I-asrlarda, ommaviy siljishi esa miloddan avvalgi II-I-asrlar bo‘sag‘asida ro‘y bergan. Binobarin, antropologlarning O‘rta Osiyo ikki daryo oralig‘i irqining qadimdan shakllanganligi to‘g‘risidagi fikrini ma’qullashga hech bir asos yo‘qligini aytish lozim.

Kaspiyorti irqi. Mintaqamizda yashovchi turkmanlar ana shu irq vakillari hisoblanishadi. Amudaryodan janubda, Kaspiyorti dashtlarida O‘rta Osiyo ikki daryo oralig‘i irqidan keskin farq qiluvchi, boshqa evropeoid irqiy tip tarqalgan. Ushbu irqning evropeoid tojik va o‘zbeklardan, mo‘g‘uliylashgan qozoqlar, qirg‘izlar va qoraqalpoqlardan keskin farq qiluvchi belgisi, ularning bosh shaklining uzunligidir. Turkmanlarni tavsiflaydigan Kaspiyorti irqi antropologlar fikricha uzoq o‘tmishdayoq xozirda keng tarqalgan hududda shakllangan. Xuddi shu fikr Rossiyalik olimlar V.V.Ginzburg, T.A.Trofimova, Tojikistonlik olima T.P.Kiyatkina, O‘zbekiston antropologlari V.Ya.Zezenkova, T.K.Xodjayov, rus olimi O.Babakov va boshqalarning eng yangi paleoantropologik tadqiqotlarida ham o‘z tasdig‘ini topgan.

Mintaqa aholisi qo‘shni Eron aholisi bilan qizg‘in tarixiy aloqalar olib borishgan. Bu aloqalar bugungi kunda ham izchillik bilan davom etmoqda. O‘zbekiston antropologlari olib borgan tadqiqot natijalari asosida shuni ta’kidlash mumkinki, mintaqa aholisining antropologik qiyofasini shakllanishida, Xuroson irqi vakillari ishtirok etganligi tabiiy. O‘z navbatida Eron aholisining irqiy va etnogenezida mintaqamiz mahalliy evropeoid aholisi muhim rol o‘ynagan bo‘lishi mumkinligi fikr qilinadi. 1929-yilda Ashxabodda olimlar antropologik dastur bo‘yicha Mashhad atrofidan chiqqan forslar va Tabriz ozarboyjonlarini o‘rganishgan [12:20-22-b]. Keyinchalik antropologlar shimoliy Eron – Xurosonda aholi o‘rtasida tarqalgan va ulargagina xos bo‘lgan antropologik jihatlarni e’tiborga olib, mustaqil Xuroson irqi birligini ajratishni taklif qilishadi. Ushbu irq vakillari qo‘shni turkmanlardek uzun bosh, ammo Kaspiyorti irqi vakillari hisoblangan turkmanlardan tanasida tuk quyuq rivojlanganligi, qirra burunligi bilan ajralib turadi. Ushbu belgilar ularni Old Osiyo (armenoid) irqi vakillari bilan yaqinlashtiradi. Ammo Xuroson irqi dumaloq bosh oldosiyoliklardan boshining uzunchoq shakldaligi bilan farqlanadi. Bu antropologlarning fikricha, o‘rta asrlarda Eronning Xuroson markazi deb atalmish shimoliy viloyatlari bilan chegaralangan mustaqil Xuroson irqini ajratishga imkon yaratgan [12:24-b].

Xurosondan g‘arb va janubi-g‘arbda joylashgan mamlakatlar va Eron Ozarboyjoni alohida evropeoid, fanda Old Osiyo irqi yoki hozirda qo‘llanilmaydigan nomdagi armenoid irqi tarqalgan markaz hisoblanadi. Mazkur irq vakillari jumlasiga nafaqat armanlar, balki Kichik Osiyoning Qora dengiz

ISSN 3030-3907

sohillaridan to Eron yassi tog‘ligining Zagros tizmasigacha bo‘lgan ulkan hududlarda yashovchi turli xalqlar va qabilalar ham kirishini aytib o‘tish lozim. Old Osiyo irqi komponentlari mintaqamiz yahudiylarida yorqin namoyon bo‘lganini kuzatish mumkin. Ular Movarounnahrga Old Osiyodan ko‘chib kelishgan. Mintaqamiz yahudiylarining turli guruhlarini tadqiq qilish natijasida, antropologlar ularning Old Osiyo irqi tipidan kelib chiqadigan alohida belgilarini aniqlashgan. Ularning dumaloq boshligi, uchlamchi tuk qatlamlarining juda rivojlanganligi, burun o‘rkachlarining bo‘rtib turishi kabi o‘ziga xosligi bilan ajralib turishi alohida belgilari sifatida ta’riflangan. Bu irqiy xususiyatlar ularni O‘rta Osiyo ikki daryo oralig‘i irqi vakillari bo‘lgan o‘zbeklar va tojiklardan farqlashi aniqlangan [12:26-b].

Maqolada ta’kidlanganidek, mintaqa hududida antropologlar tomonidan ikkinchi darajali ikki irq ko‘rsatilgan bo‘lib, shulardan biri evropeoid va mo‘g‘uliy irqlarning uzoq davom etgan aloqalari natijasida aralash xususiyatga ega bo‘lgan Janubiy Sibir, ikkinchisi esa mo‘g‘uliylik to‘la shaklda mahalliy aholi tarkibida uchramagan va aniq ko‘rsatilgan tarqalish hududi bo‘lmagan Markaziy Osiyo irqi hisoblanadi.

Janubiy Sibir irqini Rossiyalik antropolog A.I.Yarxo, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, O‘zbekiston va Oltoy-Sayan tog‘oldi xalqlarini tadqiq qilishi natijasida aniqlagan [18:70-119-b]. O‘zbekiston antropologlari Issiqko‘l qirg‘izlari, Talas daryosi vodiysidagi qozoq va qirg‘izlarni, Pomir yassi tog‘ligi va Oloy vodiysi qirg‘izlarining antropologik xususiyatlarini o‘rganishib, A.I.Yarxo aniqlagan Janubiy Sibir tipining to‘g‘riligini yana bir bor isbotlashadi [19:55-b]. Bu tip asosan qozoqlar, qirg‘izlar, qisman qoraqalpoqlarni ifodalab, aralash holda mintaqaning Pomir xalqlaridan tashqari barcha xalqlarida namoyon bo‘lgan. Sirdaryodan shimoldagi dashtlar va Tyan-Shan tog‘ tizmasi bu irqning shakllanish markazi hisoblanishi aniqlangan. Antropologlar o‘zlarining dastlabki tadqiqotlarida, Janubiy Sibir irqi bir xil emasligini tahmin qilishgan edi. Keyingi tadqiqotlarida uning chegarasida, ya’ni janubiy-sharqiy va shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishlarda ikki variantini ajratib olishdi. Janubiy-sharqiy variant ko‘proq mo‘g‘uliy bo‘lib, uning tarqalish markazi Tyan-Shan tog‘ tizmasi deb e’tirof etiladi. Shimoli-g‘arbiy variant nisbatan kamroq mo‘g‘uliy bo‘lib, mintaqaning keng dasht chegarasida tarqalgan deb topiladi [12:89-91-b]. XX-asrning oxirgi choraklari davomida amalga oshirilgan antropologik tadqiqotlar, chunonchi Rossiyalik olim V.P.Alekseev [3:54-b] o‘tkazgan tadqiqot ishlari, Janubiy Sibir irqi tarkibida uchta – Qozog‘iston, Old Tyanshanbo‘yi va Oloy-Sayan variantlarini ajratish imkonini beradi. Dastlabki ikki variant, o‘z vaqtida O‘zbekiston antropologlari taklif etgan irqiy tasnifga to‘la mos tushadi.

ISSN 3030-3907

Mo‘g‘uliy irq birliklaridan hisoblangan Markaziy Osiyo irqini Rossiya antropologi A.I.Yarxo Oltoy-Sayan turkiy xalqlari o‘rtasidan ajratib olgan edi [20:38-b]. Uni dastlab shakllanib, tarqalish markazi Mo‘g‘iliston atrofi, Baykalbo‘yi va Sibirning bir qancha boshqa viloyatlarida joylashgan. Bu irq aralash holda qirg‘iz va qozoqlarda ifodalangan. Mintaqaga ko‘chib kelgan dunganlar Markaziy Osiyo irqi komponentlari bilan xarakterlanadi. Bunday irqiy belgilar mintaqaning evropeoid aholisi bo‘lmish o‘zbeklar, tojik va turkmanlarda juda kam uchrashi aniqlangan [10:90-b]. O‘zbekistonda antropologiya fanining rivojlanishi, soha mutaxassislariga antropologiya fanida bugungi kunda ham foydalanib kelinayotgan va bir qancha masalalar echimiga aniqlik hamda tuzatishlar kiritilgan mintaqa xalqlari irqiy tasnifini taqdim qilishlariga asos bo‘ladi.

O‘zbekiston antropologlarining amalga oshirgan yana bir jiddiy tadqiqot ishlarini aytib o‘tish joiz. Samarqandda saqlanib qolgan, bugungi kunda dunyo xamjamiyati xalqlari diqqat-e’tiborini o‘ziga qaratgan, XV-asr san’at yodgorliklaridan biri, Go‘r Amir maqbarasini o‘rganish natijalari tarixiy voqea bo‘ladi. Go‘r-Amirda joylashgan Amir Temur va Temuriylar qabrlarini tadqiq qilish maqsadida, 1941-yil iyunida akademik T.N.Qori-Niyoziy rahbarligida, O‘zbekiston hukumatining bir qator olim-mutaxassislari, antropolog-olim L.V.Oshanin, tarixchi-sharqshunos, professor A.A.Semyonov, davlat Ermitaji ta’mirchisi B.N.Zasipkin, antropolog-xaykaltarosh M.M.Gerasimov, arxeolog V.A.Shishkin va boshqalardan iborat maxsus ekspeditsiya tashkil etiladi.

Olib borilgan tadqiqotlar asosida quyidagi xulosalarga kelinadi. Temuriylarni o‘rganish natijasida uchta antropologik tip ajratib olinadi. Bular: Janubiy Sibir tipi (Amir Temur), O‘rta Osiyo ikki daryo oralig‘i irqining mutlaqo evropeoidli tipi (Shohrux), O‘rta Osiyo ikki daryo oralig‘i irqining mo‘g‘uliy komponent aralash evropeoid tipi (Ulug‘bek, Muxammad Sulton). Olib borilgan tadqiqotlar davomida Temuriylarning yosh jihatlari, gavda tuzilishi va hayotligidagi bo‘ylari ham o‘rganiladi [21:190-196-b]. Davlat arbobi va sarkarda Amir Temur va Temuriylar xoklarini tadqiq etish, ularni chuqur o‘rganish maqsadida 1941-yil Samarqanddagi Go‘r Amir maqbarasiga tashkil etilgan maxsus ilmiy ekspeditsiyada O‘zbekiston antropologlari xam faol ishtirok etishadi. Ular Amir Temur va Temuriylar xoklarini tadqiq etish davomida bir qator masalalarga oydinlik kiritishga erishadilar [21:191-195-b]. Qabr ustidagi yozuvlar aynan shu tarixiy shaxslarga tegishli ekanligi tasdiqlanadi.

XX-asrning 90-yillarida O‘zbekiston antropologi T.K.Xodjayov, Temuriylar bo‘ylariga oid ma’lumotlarga tuzatishlar kiritadi. Yangi zamonaviy, takomillashgan metodlardan foydalangan holda u, Amir Temur va Temuriylar bo‘y

ISSN 3030-3907

ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi farqlarni qayta hisoblab chiqishga muvaffaq bo‘ladi. Olingan natijalar asosida, Amir Temur va Temuriylar bo‘ylari 1941-yilgi ekspeditsiya natijalari ko‘rsatkichlaridan farq qilishini aniqlaydi [21;195-b].

Xulosa qilib aytish mumkinki, antropologlar mintaqa va qo‘shni mamlakatlarda irqiy tiplarning joylashish hududlari, ularning shakllanish vaqti, yo‘nalishlarini o‘rganishib, to‘rtta evropeoid, bitta mo‘g‘uliy va bitta aralash evropeoid-mo‘g‘uliy irqiy tiplarni ajratib, ularga tavsif berishgan.

Amudaryo va Sirdaryo xavzalari va pasttekisliklarida keng tarqalgan, Pomir-Oloy hududlarini o‘z ichiga olgan O‘rta Osiyo ikki daryo oralig‘i irqining maxalliyligi, u dastlab shimoliy viloyatlarda (Toshkent vohasi, Farg‘ona vodiysi), keyinchalik mintaqaning markaziy va janubiy viloyatlarida shakllanganligi aniqlanadi.

Turkmanlar Kaspiyorti irqi vakillari sirasiga kiritiladi. Ular O‘rta Osiyo ikki daryo oralig‘i irqidan farq qilib, evropeoid o‘zbeklar va tojiklardan, mo‘g‘uliylashgan qozoq, qirg‘iz va qoraqalpoqlardan bosh shaklining uzunligi bilan ajralib turishi aniqlanadi. Kaspiyorti irqi o‘tmishda va xozir xam keng tarqalgan hududda shakllanganligi aniqlanadi.

Antropologlar, shimoliy Eron-Xuroson aholisida mapvjud o‘ziga xos antropologik jihatlarni e’tiborga olib, mustaqil Xuroson irqini ajratishadi. Ularni qo‘shni turkmanlardek uzun bosh, ammo tana tuklarining rivojlanganligi, qirra burunligi bilan ajralib turishlarini aniqlashgan.

Old Osiyo irqi vakillariga mintaqada tarqalgan yahudiylar kiritiladi. Ular O‘rta Osiyo ikki daryo oralig‘i irqi vakillaridan dumaloq boshligi, uchlamchi tuk qatlamlarining rivojlanganligi, burun o‘rkachlarining bo‘rtib turishi kabi xususiyatlari bilan farqlanishlari aniqlanadi.

Mintaqa aholisida, asosan qozoq, qirg‘iz, qoraqalpoqlarni tavsiflaydigan evropeoid va mo‘g‘uliy irqlarning uzoq davom etgan aloqalari natijasida aralash xususiyatga ega bo‘lgan Janubiy Sibir irqini ajratib olishadi. Bu irqning shakllanish markazi Sirdaryoning shimoldagi dashtlari va Tyan-Shan tizmasi ekanligi ilgari suriladi.

O‘z vaqtida, Oltoy-Sayan turkiy tilli xalqlaridan ajratib olingan Markaziy Osiyo irqi aralash holda qirg‘iz va qozoqlarda ifodalanganligi, mintaqaga ko‘chib kelgan dunganlar shu irq komponentlari bilan xarakterlanishini aniqlashadi.

O‘zbekistonlik antropologlar fanda bugungi kunda ham foydalanib kelinayotgan va ahamiyatini yo‘qotmagan qator masalalar echimiga aniqlik va tuzatishlar kiritishadi va mintaqa xalqlarining irqiy tasnifini taqdim etishadi.

ISSN 3030-3907

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Алексеев В.П., Гохман И.И. Антропология Азиатской части СССР. – М.: наука, 1984. – С. 201.
2. Alexeev V., Gohman I. Physical antrophology of Soviet Asia. Rassengeshte der Menschheit. Leiferung 9. – Munchen-Wien, 1983. – S. 189-192.
3. Алексеев В.П. География человеческих рас. – М.: Мысль, 1974. – С. 54.
4. Гинзбург В.В., Трофимова Т.А. Палеоантропология Средней Азии. – М.: Наука, 1972. – С. 303-304.
5. Герасимов М.М. Основы по восстановлению лица по черепу. – М.: Госиздат, 1949. – С. 172-178.
6. Ошанин Л.В. Материалы по антропологии Средней Азии. Узбеки Хорезма. Часть I и II. // Бюллетень САГУ. – 1927-1928. - № 16-17. – С. 171.
7. Ошанин Л.В. Материалы по антропологии Средней Азии. Киргизы южного побережья Иссык-куля // В.В.Бартольду – туркестанские друзья, ученики и почитатели. – Т., 1927. – С. 233-237.
8. Ошанин Л.В. К сравнительной антропологии этнических групп, пришлых из Передней Азии – евреев и арабов и этнических групп Узбекистана – узбеков и таджиков // Материалы по антропологии населения Узбекистана. Вып. I. Госиздат. Ташкент – Самарканд, 1929. – С. 29.
9. Ошанин Л.В. Данные к географическому распространению главнейших антропологических признаков населения Средней Азии и опыт выявления основных расовых типов в Средней Азии // Труды IV Всесоюзного съезда зоологов, анатомов и гистологов. – Киев, 1931. – С. 312-314.
10. Ошанин Л.В. Антропологический состав населения Средней Азии и этногенез ее народов. Ч. I-III. – Ереван: Изд-во Ереванского ГУ, 1957-1959. – С. 90-110.
12. Ошанин Л.В. Тысячелетняя давность долихоцефалии у туркмен и возможные пути её происхождения // Известия Средазкомстариса. Вып. I. – Т., 1926. – С. 134-182.
13. Ошанин Л.В. Антропологический состав населения Средней Азии и этногенез ее народов в свете данных антропологии. (Итоги 25-летних антропологических исследований в Средней Азии). Данные по антропологии народов Ирана. Персы, азербайджанцы и белуджи / Ошанин Л.В., Зезенкова В.Я. Вопросы этногенеза народов Средней Азии в свете данных антропологии. – С. 20-22.
14. Палеоэкология и следы древнейшего человека в Центральной Азии. – Т.: Фан, 1995. – С. 165.

ISSN 3030-3907

15. Рычков Ю.Г. Происхождение расы Среднеазиатского междуречья. Проблемы этнической антропологии Средней Азии // Научные труды ТашГУ. Вып. 235. – Т., 1964. – С. 74-77.
16. Тешик-таш. Палеолитический человек. – М.: Изд-во МГУ, 1949. – С. 18.
17. Ходжайов Т.К. Палеоантропология Средней Азии и этногенетические проблемы.: Автореф. Дис. ... докт. Истор. наук. – М., 1981. – С. 28.
18. Ходжайов Т.К. Краткие итоги изучения антропологии Средней Азии в связи с проблемами этногенеза узбекского народа // Материалы по этнической истории населения Средней Азии. – Т.: Фан, 1986. – С. 100-102.
19. Ярхо А.И. Туркмены Хорезма и Северного Кавказа // Антропологический журнал. – 1933. - № 1-2. – С. 70-119.
20. Ярхо А.И. Киргизы. О некоторых итогах и проблемах антропологического изучения киргизов // Сборник издания центрального бюро краеведения. – М., 1931. – С. 55.
21. Ярхо А.И. Алтае-саянские тюрки. Антропологический очерк. – Абакан: Хакасский научно-исследовательский институт языков, литературы и истории. – Хакоблношиздат, 1947. – С. 38.
22. Зезенкова В.Я. Черепа Тимура и Тимуридов (XV в) // Научные труды ТашГУ. Вып. 232. – Т., 1964. – С. 191-195.

ISSN 3030-3907